

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida inklyuziv ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari

Mushtariy Abdurazzoqova

mushtariyabdurazzoqova242@gmail.com

Ilmiy maslaxatchi: Azimaxon Odiljon-qizi Kamolova

Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, Universal ta'lim dizayni va differentsiallashgan o'qitish modellari asosida inklyuziv ta'limni tashkil etishning fundamental-nazariy jihatlari tadqiq etiladi. Shuningdek, ta'limda teng huquqlilikni ta'minlash bugungi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur ishning bosh maqsadi - alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni umumta'lim muhitiga integratsiya qilishning eng samarali metodologik mexanizmlarini aniqlash va ilmiy asoslashdan iborat. Bundan tashqari, milliy ta'lim tizimi uchun mukammal strategik tavsiyalar, kadrlar malakasini oshirish tizimini isloh qilish va amaliy modellar kompleks tarzda ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, universal ta'lim dizayni, differentsiallashgan o'qitish, individual ta'lim dasturi, assistiv texnologiyalar, multiditsiplinar jamoa, ta'lim integratsiyasi

Theoretical foundations of organizing inclusive education based on modern pedagogical approaches

Abdurazzoqova Mushtariy

mushtariyabdurazzoqova242@gmail.com

Scientific advisor: Azimaxon Odiljon-kizi Kamolova

Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article examines the fundamental and theoretical aspects of organizing inclusive education based on modern pedagogical approaches, particularly the models of Universal Design for Learning and differentiated instruction. Ensuring equal rights in education is also considered one of the key issues of today. The main objective of this study is to identify and scientifically substantiate the most effective methodological mechanisms for integrating children with special educational needs into the general education environment. In addition, comprehensive strategic recommendations for the national education system, reforms of professional development systems for educators, and practical models have been developed.

Keywords: inclusive education, Universal Design for Learning, differentiated instruction, Individualized Education Program, assistive technologies, multidisciplinary team, educational integration

Inklyuziv ta'lim zamonaviy pedagogika fanining eng muhim qismi bo'lib, u har bir insonning jismoniy, intellektual yoki hissiy xususiyatlaridan qat'i nazar, sifatli ta'lim olishga bo'lgan fundamental huquqini ta'minlaydi. Hozirgi davrda ta'lim tizimi uchun universal tamoyillarni ishlab chiqish har bir shaxsning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olishni talab etadi. Bu borada dastlab ikki xil yondashuv ustuvor bo'lgan: tibbiy model va ijtimoiy model¹. Tibbiy model - muammoni bevosita bolaning jismoniy nuqsonida deb hisoblaydi va uni jamiyatdan ajratib, uni maxsus maktab-internatlarga izolyatsiya qilishni hamda ularni davolashni ustuvor vazifa etib belgilaydi. Zamonaviy inklyuziv pedagogika asosini tashkil etuvchi ijtimoiy model esa, muammoning manbai bolada emas, balki atrof-muhitning (maktab infratuzilmasi, o'quv dasturlari) moslashmaganligida ekanligini isbotlaydi². Inklyuzivlikning fundamental psixologik-pedagogik asosi L.S.Vigotskiyning "sotsiomadaniy rivojlanish nazariyasi"ga borib taqaladi. Olim tomonidan ilgari surilgan "Yaqindagi rivojlanish konsepsiyasi" inklyuziv sinflarda alohida ehtiyojli bolaning sog'lom tengdoshlari bilan doimiy va tizimli muloqot jarayonida kognitiv va ijtimoiy jihatdan tezroq o'sishini ilmiy jihatdan asoslab beradi³. Uning kompensatsiya nazariyasiga ko'ra, biologik yoki ruhiy nuqson faqat kamchilik emas, balki yangi rivojlanish yo'llarini izlash uchun kuchli rag'batdir. Bu kamchilik ijtimoiy muloqot, inklyuziv ta'lim shakli va moslashuvchan ta'limiy yordam orqali samarali qoplanishi (kompensatsiya qilinishi) mumkin⁴. L.S.Vigotskiy alohida yordamga muhtoj bolaning nafaqat "salbiy" balki "ijobiy" tomonlarini ham o'rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va uning potensial ichki qobiliyati, imkoniyatlarini inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi. 1930-yildan boshlab alohida ta'limga muhtoj bolalar majburiy ta'limga jalb etila boshlandi shundan keyin sohada mutaxassislar tayyorlash ishlari boshlab yuborildi⁵. Hozirgi kunda xalqaro miqyosda inklyuziv ta'limni tashkil etishning eng yetakchi metodologik asosi - Universal ta'lim dizayni hisoblanadi. D.Rose va A.Meyer tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariya ta'lim muhiti, metodikasi va dasturlarini barcha o'quvchilar uchun ochiq, moslashuvchan va qulay holda loyihalashni talab qiladi. Universal ta'lim dizayni miya neyrobiologiyasiga tayanib, uchta bosh tamoyilni ilgari suradi; - axborotni idrok etishning ko'p variantlilik (vizual, audio, taktil), - bilimni namoyish qilish va ifodalashning ko'p variantlilik (yozma, og'zaki, amaliy) - darsga jalb qilish (motivatsiya)ning ko'p jihatlilik⁶. Shuningdek, C.A.Tomlinsonning differensiallashgan o'qitish konsepsiyasi ham ushbu tizimni to'ldirib, o'qituvchiga bir

xil sinfda dars mazmuni, jarayoni, yakuniy natijasi va o'quv muhitini o'quvchilarning turlicha imkoniyatlari hamda o'rganish uslublariga qarab tabaqalashtirishga yordam beradi⁷. Shuningdek tadqiqot metodlaridan kuzatish, pedagogik eksperiment, sotsiometrik so'rovnomalar, test sinovlari hamda o'quvchilarning choraklik natijalari tahlili asosiy usullardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida belgilangan inklyuzivlik talablarini amaliyotga to'g'ri joriy etish uchun maktab o'qituvchilarining inklyuziv kompetensiyasini muntazam oshirish va ularni kasbiy charchash sindromidan himoya qilish zarur. Mazkur qonunida belgilangan inklyuzivlik talablarini amaliyotga joriy etish uchun tizimda ma'lum sharoitlar yaratilishi lozim. Bunga quyidagilar kiradi: 1. Modifikatsiya va adaptatsiya - dastur va rejalarni bolaning ehtiyojiga moslashtirish. 2. Kompensatsiya va rehabilitatsiya - masalan, eshitish qobiliyati past bolani eshitish apparati, harakatlanishi cheklangan bolani nogironlar aravachasi yoki maxsus qulay uskunalar bilan ta'minlash. Tizimli multiditsiplinar yondashuvsiz inklyuzivlik o'z mohiyatini yo'qotib, oddiy integratsiyaga (bolaning sinfda shunchaki jismoniy o'tirishiga) va uning darsdan uzilib qolishiga aylanib qoladi. Matematik-statistik tahlillar eksperimental guruhdagi o'sish koeffitsiyentining tasodifiy emas, balki o'qitish metodikasi to'g'ri o'zgartirilganligining bevosita samarasi ekanligini tasdiqladi. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim tizimida birinchi navbatda bolaning talablari o'rganiladi, ijobiy tomonlari, qobiliyati hisobga olinadi, kamchiliklari o'rganiladi. Ushbu ta'lim tizimida ma'lum sharoit yaratilishi lozim. Inklyuziv ta'lim bu maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashtirilgan va sharoitga qarab o'zgaruvchan, g'amxo'rlik bilan yondasha oladigan ta'lim tizimidir. Ushbu ishlar me'yorda rivojlangan bolalar o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. Inklyuziv - jalb etish degan ma'noni anglatadi, ya'ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan o'zaro bog'lanib, birgalikda ta'lim olishidir. Buni amalga oshirish uchun har bir bolaga individual yondashish, nuqsonidan kelib chiqqan holda u uchun qulay sharoit yaratish, kerak bo'lsa, dastur va rejani qisman o'zgartirish va h.k⁷.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolani oddiy sinfga joylashtirish - integratsiya emas, balki uni universal ta'lim dizayni va differensiallashgan o'qitish asosida dars jarayoniga to'liq jalb etishdir. Bundan tashqari texnik va pedagogik kompensatsiya (assisitiv texnologiyalar, individual dasturlar) sifatli ta'lim kafolati bo'lib xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasiga bog'liq. Biz bolani "nuqsonli" deb hisoblaydigan tibbiy modeldan butunlay voz kechib, maktab muhitini, dars dasturlarini bolaga moslashtirishimiz umumiy aytganda bunda bizga asosan ijtimoiy model kerak. Bola darsga emas, dars bolaga moslashishi muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Малофеев Н. Н. Западноевропейский опыт единого дефектологического пространства. — М.: Просвещение, 2011. (45-52 -betlar)
2. Kenjayeva D. Inklyuziv ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. (12-19-betlar)
3. Выготский Л. С. Основы дефектологии. Серия "Учебники для вузов". — СПб.: Лань, 2003.(114-120-betlar)
4. Tomlinson, C. A. How to differentiate instruction in academically diverse classrooms. — 3rd Edition. — Alexandria, VA: ASCD, 2017. (45--51-betlar)
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
6. Ayupova M. Logopediya. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2011.(. 201-208-betlar)
7. V.S.Rahimova "Defektologiya asoslari " Toshkent: 2017.(12-19 -betlar)